O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

ANDIJON VILOYATI PEDAGOG MAHORAT MARKAZI

XUDOYBERDIYEVA JUMAGUL AMANOVNA

TA’LIMDA O‘QITUVCHILARNING XXI ASR KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

O‘QUV QO‘LLANMA

ANDIJON – 2026

Tuzuvchi:

Xudoyberdiyeva J.A – AVPMM Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalar kafedrasi katta o’qituvchisi.

O‘quv qo‘llanma maktab pedagog va psixolog o‘qituvchilari, qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilari uchun mo‘ljallangan.

Ushbu o’quv qo’llanmadan asosan pedagoglar va psixologlar foydalanishi mumkin.

Taqrizchilar:

Q. M. Azizova – AVPMM Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalar kafedrasi mudiri p.f.f.d (PhD)., dotsent

B.T. Qodirova - ADPI Boshlang’ich ta’lim kafedrasi professori p.f.f.d (PhD).

Ushbu o’quv qo’llanma AVPMM Ilmiy-metodik Kengashining 2026 yil

_____ dagi № ____ -son qarori bilan tasdiqlangan.

Uslubiy qo’llanma Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyasi kafedrasining 2026 yil ___ _____ dagi № _____ - son yig’ilishida muhokama qilingan va maqullangan

MUNDARIJA

Kirish……4

1-§. XXI asr ta’lim paradigmasi va o‘qituvchining kasbiy kompetentligi..……..... 6

2-§. XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik texnologiyalari……...26

3-§. Blum taksonomiyasi va 4K modeli asosida o‘qituvchilarning yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish...…… 57

4-§. O‘qituvchilarning XXI asr ko‘nikmalarining samaradorligini baholash va diagnostika qilish mezonlari.……...68

XULOSA……...……81

GLOSSARIY……83

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....85

Kirish

XXI asrda fan, texnologiya va raqamli muhitning jadal rivojlanishi ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bugungi kunda ta’limning asosiy maqsadi faqat tayyor bilimlarni berish emas, balki ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, axborotni tahlil qilish, muammolarni hal etish, ijodiy yondashish, samarali muloqot qilish va hamkorlikda faoliyat yuritish kabi zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Shu sababli o‘qituvchining XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy fan taraqqiyoti bilan ta’lim mazmuni o‘rtasidagi tafovut ham ushbu masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Ilm-fan yangi bilim va texnologiyalarni juda tez sur’atlarda yaratmoqda. Bunday sharoitda o‘qituvchi tayyor bilimlarni yetkazuvchi emas, balki o‘quvchini yangi bilimlarni izlash, tahlil qilish, baholash va yaratishga yo‘naltiruvchi pedagog sifatida faoliyat yuritishi lozim. Demak, XXI asr o‘qituvchisi tanqidiy va kreativ fikrlash, kommunikatsiya, hamkorlik, raqamli savodxonlik hamda uzluksiz kasbiy rivojlanish kompetensiyalariga ega bo‘lishi zarur.

Mazkur o‘quv qo‘llanmaning dolzarbligi O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan ham bevosita bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni, 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni, 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qarorida ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlashga oid muhim vazifalar belgilangan.

O‘quv qo‘llanmada XXI asr ko‘nikmalarining mazmun-mohiyati, ularni rivojlantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari hamda amaliy texnologiyalari yoritilgan. Xususan, 4K modeli – tanqidiy fikrlash, kreativlik**,** kommunikatsiya va hamkorlik, shuningdek, Blum taksonomiyasi asosida yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, pedagoglarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, pedagogik

hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va lifelong learning – butun hayot davomida ta’lim olish tamoyili asosida uzluksiz kasbiy rivojlanishni tashkil etish masalalari ham qamrab olingan.

Mazkur o‘quv qo‘llanmaning asosiy maqsadi – o‘qituvchilarning XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini yoritish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kasbiy faoliyatga tatbiq etish bo‘yicha metodik ko‘mak berish hamda pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalarni taqdim etishdan iborat.

O‘quv qo‘llanma pedagoglar, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari tinglovchilari, metodistlar, pedagogika yo‘nalishi talabalari hamda ta’lim sohasi mutaxassislari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan o‘quv mashg‘ulotlari, seminar-treninglar va mustaqil kasbiy rivojlanish jarayonida foydalanish mumkin.

1-§. XXI ASR TA‘LIM PARADIGMASI VA O‘QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGI

XXI asr ta‘limining mazmuni va rivojlanish tendensiyalari. XXI asr insoniyat taraqqiyotida ilm-fan, texnologiya, iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlarning jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadigan yangi bosqich hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi, sun’iy intellekt, raqamli iqtisodiyot va globallashuv jarayonlari jamiyatning barcha sohalari qatorida ta’lim tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada ta’limning maqsadi, mazmuni, metodlari va baholash tizimi tubdan yangilanib, an’anaviy bilim berishga asoslangan modeldan kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim modeliga o‘tish zarurati yuzaga keldi.

Bugungi kunda zamonaviy ta’limning asosiy vazifasi o‘quvchilarga faqat nazariy bilimlarni yetkazish emas, balki ularni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal etishga, ijodkorlik bilan ishlashga, axborotni tanqidiy tahlil qilishga hamda jamoada samarali faoliyat yuritishga tayyorlashdan iborat. Shu bois ta’lim tizimida “XXI asr ko‘nikmalari’’ tushunchasi muhim ilmiy va pedagogik kategoriya sifatida shakllandi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, ayniqsa, so‘nggi yillarda ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini yuksaltirish va ularning ijtimoiy maqomini mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki ta’lim jarayonining muvaffaqiyati, avvalo, o‘qituvchi shaxsining bilim darajasi, pedagogik mahorati hamda kasbiy kompetensiyasiga bevosita bog‘liqdir. Shu ma’noda, bugungi kunda pedagog shaxsining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi nafaqat ta’lim tizimining, balki butun jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida qaralmoqda. Zamonaviy o‘qituvchi shunchaki bilim yetkazuvchi emas, balki o‘quvchi shaxsining intellektual, axloqiy, estetik va ijtimoiy jihatdan kamol topishiga yo‘naltirilgan murabbiy, tashkilotchi va motivator sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli pedagogdan nafaqat o‘z fani bo‘yicha puxta bilim, balki keng dunyoqarash, kommunikativ madaniyat, psixologik sezgirlik, innovatsion fikrlash va axborot

texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyati talab etiladi. Bularning barchasi o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi doirasida shakllanadi.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim jarayonini modernizatsiyalash, xalqaro tajribalarni o‘rganish va raqamli ta’lim muhitini yaratish zaruriyati o‘qituvchining faoliyatiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, masofaviy ta’lim platformalari, sun’iy intellekt vositalarining keng joriy etilishi pedagoglardan o‘z kasbiy kompetensiyalarini muntazam ravishda yangilab borishni talab qilmoqda. Shuningdek, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida yosh avlodni tarbiyalash, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirish o‘qituvchining metodik, psixologik va kommunikativ salohiyatiga bevosita bog‘liqdir. Ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish O‘zbekiston Respublikasining **‘‘Ta’lim to‘g‘risidagi’’** qonuni hamda
‘‘ O‘zbekiston – 2030’’ strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalardan biri sifatida e’tirof etilgan. Bu yondashuv o‘quvchi shaxsini tayyor bilimni egallovchi emas, balki mustaqil fikrlovchi, o‘rganilgan bilimni amaliyotda qo‘llay oluvchi subyekt sifatida shakllantirishni ko‘zda tutadi. Shu boisdan, o‘qituvchining o‘zi ham zamonaviy kompetensiyalar tizimini egallamagan taqdirda, o‘quvchilarni kreativ fikrlashga, innovatsion faoliyatga yo‘naltirish imkoniyatiga ega bo‘la olmaydi. Shunday qilib, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi bu nafaqat uning kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilovchi mezon, balki ta’lim sifatining poydevoridir.

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi eng dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Ta’lim sifati bevosita pedagogning bilim darajasi, pedagogik mahorati, innovatsion faoliyati va shaxsiy rivojlanishiga bog‘liq bo‘lib, kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltiradi. Zamonaviy raqamli ta’lim muhiti, innovatsion metodlar va globallashuv sharoitida pedagogning uzluksiz malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyoji ortib bormoqda. Shu sababli, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini tizimli rivojlantirish, uning metodik, kommunikativ, refleksiv va axborot-kommunikatsion salohiyatini

mustahkamlash bugungi ta’limning sifatini oshirish va jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

XXI asr ta’limining mohiyati- Pedagogika fanida XXI asr ta’limi shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, innovatsion va uzluksiz rivojlanishga asoslangan ta’lim modeli sifatida e’tirof etiladi. Mazkur modelning asosiy maqsadi shaxsni tez o‘zgarayotgan ijtimoiy va kasbiy muhitga moslasha oladigan, tanqidiy fikrlovchi, ijodkor va mas’uliyatli fuqaro sifatida shakllantirishdan iborat.

UNESCO ekspertlari zamonaviy ta’limni **‘‘barqaror rivojlanish, tinchlik, inson huquqlari va umrbod ta’lim tamoyillariga asoslangan ta’lim’’** sifatida tavsiflaydilar. OECD tomonidan ishlab chiqilgan ‘‘Learning Compass 2030’’ modeli esa ta’limni bilim, ko‘nikma, qadriyat va munosabatlarning uyg‘un rivojlanishiga xizmat qiluvchi tizim sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi kelajakdagi murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan va o‘z bilimini yangi sharoitlarda qo‘llay oladigan shaxs bo‘lishi lozim.
Shu nuqtayi nazardan XXI asr ta’limining mazmuni quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- kompetensiyaga asoslangan ta‘lim;
- shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv;
- raqamli ta‘lim muhiti;
- innovatsion pedagogik texnologiyalar;
- umrbod ta‘lim (Lifelong Learning);
- inklyuziv ta‘lim;
- barqaror rivojlanish maqsadlariga yo‘naltirilgan ta’lim;
- xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS) talablari asosida ta’lim sifatini oshirish.

O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida eng ko‘p tadqiq etilayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Kompetensiya tushunchasi XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ‘‘malaka’’, ‘‘kasbiy tayyorgarlik’’ va ‘‘pedagogik mahorat’’ kabi an’anaviy tushunchalarga muqobil sifatida shakllangan. G‘arb va rus pedagogika ilmida kompetensiya avvalo amaliy faoliyatga tayyorlik, o‘z bilimlarini real sharoitda samarali qo‘llay olish qobiliyati bilan bog‘langan.

E.F. Zeer o‘zining **‘‘Psixologiya professionalnogo obrazovaniya’’** asarida kompetensiyani shaxsning kasbiy tajriba, bilim, motivatsiya va qadriyatlarini bir butun tizim sifatida namoyon etuvchi sifat deb ta’riflaydi1. Muallifning fikricha, o‘qituvchi o‘z kasbiy kompetensiyasini doimiy rivojlantirib borishi zarur, aks holda u ta’lim jarayonidagi innovatsion o‘zgarishlarga moslasha olmaydi. Zeer kompetensiyani o‘qituvchining shaxsiy va professional fazilatlari uyg‘unligida namoyon bo‘ladigan murakkab psixologik tizim sifatida ko‘radi, bunda metodik tayyorgarlik, refleksiya, innovatsion fikrlash va ijtimoiy mas’uliyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir.

A.K. Markova ‘‘Psixologiya professionalizm’’ asarida kasbiy kompetensiyani uch asosiy darajaga ajratadi: tayyorgarlik, samaradorlik va ijodkorlik. Tayyorlik darajasi pedagogning nazariy bilim va metodik ko‘nikmalari bilan bog‘liq bo‘lsa, samaradorlik darajasi o‘qituvchining o‘quv jarayonini tashkil etish va muammolarni kreativ yechish qobiliyatini ifodalaydi. Ijodkorlik darajasi esa innovatsion metodlarni qo‘llash, dars jarayonini yangicha yo‘llar bilan tashkil etish va o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rag‘batlantirishni nazarda tutadi. Markova shuningdek, yuqori darajadagi kompetent o‘qituvchi nafaqat o‘quvchilarga bilim yetkazuvchi, balki ularning shaxsiy rivojlanishini ta’minlovchi, metodik va innovatsion faoliyatga rahbarlik qiluvchi shaxs ekanligini ta’kidlaydi.

L.M. Mitina esa o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini psixologik omillar bilan bevosita bog‘laydi. Unga ko‘ra, pedagogning refleksiv qobiliyati o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan saboq olish va o‘zini rivojlantirishga intilish kompetensiyaning eng muhim ko‘rsatkichidir deya takidladi. Refleksiya jarayoni

pedagogning o‘quvchilarga yondashuvi, baholash mezonlarini aniqlash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va shaxsiy metodik yondashuvni takomillashtirish imkonini beradi.

O‘zbekistonlik olim V.M. Karimova ‘‘Pedagogik mahorat va kompetensiya asoslari’’ asarida kompetensiyani ‘‘o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishga imkon beruvchi integrativ sifatlar majmui’’ deb talqin qiladi. U pedagogning metodik, kommunikativ, refleksiv, axborot-kommunikatsion va ijtimoiy kompetensiyalarini kompleks holda rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. V. Karimova shuningdek, pedagogning shaxsiy qadriyatlari, axloqiy fazilatlari va ijtimoiy mas’uliyati uning kasbiy kompetensiyasining ajralmas tarkibiy qismlari ekanligini qayd etadi.

Xorijiy tadqiqotlar ham o‘qituvchining kompetensiyasini ko‘p qirrali tushuncha sifatida o‘rganadi. Masalan, D. Hargreaves **‘‘Teaching as a learning profession’’** asarida o‘qituvchini ijtimoiy faol shaxs sifatida ko‘rib, uning o‘quvchilar, ota-onalar va jamiyat bilan samarali muloqotini ta’kidlaydi. O‘qituvchining shaxsiy qadriyatlari, kommunikativ madaniyati, innovatsion faoliyati va professional mas’uliyati uning kompetensiyasining ajralmas qismlari sifatida ko‘rsatiladi. Kasbiy kompetensiya o‘qituvchining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, pedagogik vaziyatlarni to‘g‘ri tahlil qilish, muammolarga kreativ yondashish, ta’lim jarayonida zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalana olish kabi fazilatlarni o‘z ichiga oladi. Shu boisdan, kompetent o‘qituvchi har doim o‘rganishga ochiq, yangi pedagogik tajribalardan foydalanishga tayyor va o‘zini muntazam rivojlantiruvchi shaxs bo‘lishi zarur. Bunday pedagog nafaqat bilim beradi, balki o‘quvchini o‘ylashga, tahlil qilishga, mustaqil qaror qabul qilishga undaydi. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida o‘qituvchidan yangicha fikrlash, tezkor moslashuv, axborot texnologiyalarini egallash va zamonaviy o‘quv jarayonida ularni samarali qo‘llay olish talab etilmoqda. Shuning uchun ham o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, avvalo, uning raqamli savodxonligini oshirish, onlayn ta’lim vosita-laridan foydalanish madaniyatini shakllantirish va masofaviy ta’lim jarayoniga

moslashuvchanlikni ta’minlash bilan chambarchas bog‘liqdir. Raqamli asrda o‘qituvchi nafaqat bilim man-bai, balki o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga yo‘naltiruvchi fasilitator sifatida faoliyat yuritadi.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonida o‘qituvchining refleksiv faoliyati ham muhim o‘rin tutadi. Refleksiya bu o‘z faoliyatini tahlil qilish, kamchilik va yutuqlarni baholash, natijalarni tahlil asosida takomillashtirishjarayonidir. O‘qituvchi o‘zining dars o‘tish uslublarini, o‘quvchilar bilan muloqotini, baholash mezonlarini tahlil qilib, har bir darsdan keyin xulosa chiqara olishi zarur. Bu jarayon pedagogni o‘z ustida ishlashga, kasbiy mahoratini doimiy oshirishga undaydi. Shuningdek, o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi uning ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarida ham namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilar, ota-onalar, hamkasblar bilan to‘g‘ri va samarali muloqot o‘rnatish ta’lim jarayonining muvaffaqiyat garovidir. O‘qituvchi kommunikativ madaniyat orqali sinfda ijobiy psixologik muhit yaratadi, o‘quvchilarda ishonch hissini shakllantiradi va ularning faol ishtirokini ta’minlaydi. Shuning uchun kommunikativ kompetensiya o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari bilan uzviy bog‘liqdir.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning muhim shartlaridan biri uzluksiz ta’lim tamoyilidir. O‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatida doimo yangilanishga intilishi, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, xalqaro tajribalar bilan tanishib borishi lozim. Malaka oshirish kurslari, seminarlar, treninglar, ilmiy konferensiyalar va o‘z ustida mustaqil ishlash bu yo‘lda muhim omil hisoblanadi. ‘‘Umrboqiy o‘rganish’’ (lifelong learning) tamoyili pedagog kasbining ajralmas qismiga aylanishi kerak. Chunki bilimlar juda tez eskirayotgan davrda o‘qituvchi o‘zini yangilamasa, ta’lim jarayonida orqada qolishi muqarrar. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi faqat nazariy bilimlar yoki metodik ko‘nikmalar bilan belgilanmaydi. Unda insonparvarlik, mehr, sabr-toqat, adolat, halollik, bolalarga bo‘lgan hurmat kabi ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ham muhim o‘rin tutadi. Chunki ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi o‘z shaxsiy namunasi orqali o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi o‘zining axloqiy fazilatlari bilan yosh avlodni ezgulik,

adolat va insonparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Shu jihatdan kasbiy kompetensiya shaxsiy madaniyat bilan uzviy bog‘liq tushunchadir.

O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi bir nechta tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, pedagogik faoliyatning samaradorligini ta’minlaydi.

Birinchi tarkibiy qism - metodik kompetensiya, bu pedagogning o‘z fani bo‘yicha puxta bilim va ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini bildiradi. **Ikkinchi tarkibiy qism** - kommunikativ kompetensiya, pedagogning o‘quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati, ijobiy psixologik muhit yaratish va jamoaviy ishlashni o‘z ichiga oladi.

Uchinchi tarkibiy qism - refleksiv kompetensiya, pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilish, kamchilik va yutuqlarni aniqlash va shaxsiy o‘sish uchun strategiyalar ishlab chiqish qobiliyatidir.

To‘rtinchi tarkibiy qism - innovatsion kompetensiya, yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni qo‘llash, raqamli vositalardan samarali foydalanish va o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. **Beshinchi tarkibiy qism** - ijtimoiy kompetensiya, pedagogning jamiyatdagi roli, axloqiy qadriyat-lar va mas’uliyat hissini shakllantirishni bildiradi. Har bir tarkibiy qism bir-biri bilan uyg‘unlashib, pedagogning kompleks kompetensiyasini tashkil qiladi. Kompetensiyaning ushbu tarkibiy qismlari o‘quvchilarning shaxsiy va intellektual rivojlanishi, ta’lim sifatining oshishi va pedagogning kasbiy samaradorligini ta’minlaydi. Shu sababli pedagogning har bir komponent bo‘yicha doimiy malaka oshirishi, innovatsion yondashuvlarni egallashi va refleksiv faoliyatni rivojlantirishi zarur. Kompetensiyaning tarkibiy qismlari o‘qituvchining shaxsiyati, axloqiy fazilatlari va ijtimoiy ko‘nikmalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ta’lim jarayonining sifat va samaradorligini belgilaydi.

Kompetensiyani shakllantirishda tizimli yondashuv, uzluksiz malaka oshirish va innovatsion metodlarni qo‘llash asosiy o‘rin tutadi.

XXI asr ko‘nikmalarining xalqaro modellari- XXI asrda ta’lim tizimining asosiy maqsadi o‘quvchilarning faqat fanlarga oid bilimlarni shakllantirish emas, balki ularning zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur

bo‘lgan kompetensiyalarni rivojlantirishdan iboratdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi, globallashuv, sun’iy intellektning kirib kelishi, iqlim o‘zgarishi va mehnat bozoridagi transformatsiyalar ta’lim tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Shu sababdan **UNESCO, OECD, Partnership for 21st Century Learning (P21), Assessment and Teaching of 21st Century Skills (ATC21S), World Economic Forum (WEF)** hamda Yevropa Komissiyasi tomonidan XXI asr ko‘nikmalarining turli xalqaro modellari ishlab chiqilgan.

Ushbu modellar ta’limning strategik maqsadlarini to’g’ri belgilash, o‘quv dasturlarini takomillashtirish, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini zamon talabi asosida rivojlantirish hamda o‘quvchilarni kelajakdagi hayot va mehnat faoliyatiga tayyorlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

OECD Learning Compass 2030 modeli- XXI asrda jamiyatning jadal rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, sun'iy intellekt, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data), globallashuv va iqlim o‘zgarishi kabi omillar ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Mazkur o‘zgarishlar sharoitida an'anaviy ta’lim modeli o‘rnini o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi, kompetensiyalarni shakllantirish va umrbod ta’lim olish tamoyillariga asoslangan zamonaviy yondashuvlar egallamoqda. Shu nuqtai nazardan, OECD tomonidan ishlab chiqilgan **Future of Education and Skills 2030** loyihasi hamda uning asosiy konseptual modeli bo‘lgan **OECD Learning Compass 2030** bugungi kunda xalqaro ta’lim siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Loyiha 2015-yilda OECD Ta’lim siyosati qo‘mitasi tashabbusi bilan yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi kelajakda o‘quvchilarga qanday bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlar zarur bo‘lishini aniqlash hamda ta’lim tizimi ushbu kompetensiyalarni qanday samarali rivojlantirishi mumkinligini ilmiy asoslashdan iboratdir. Loyiha ta’lim mazmunini zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda qayta ko‘rib chiqish, o‘quv dasturlarini takomillashtirish va kompetensiyaga asoslangan ta’limni rivojlantirishga xizmat qiladi.

OECD Learning Compass 2030 baholash tizimi yoki o‘quv dasturi emas, balki ta’limning strategik rivojlanish yo‘nalishlarini belgilovchi konseptual model hisoblanadi. Ushbu model o‘quvchilarning kelajakda muvaffaqiyatli hayot kechirishi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishi uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Modelning asosiy maqsadi shaxsiy va ijtimoiy farovonlikni ta’minlash bo‘lib, bunda bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlarning uyg‘un rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Modelning markazida **o‘quvchi agentligi (Student Agency)** tushunchasi joylashgan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi ta’lim jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki o‘z ta’lim faoliyatini mustaqil boshqaruvchi, maqsad qo‘yuvchi, qaror qabul qiluvchi va o‘z harakatlari uchun javobgarlikni his qiluvchi faol subyektdir. Biroq agentlik mutlaq mustaqillikni anglatmaydi. O‘quvchining rivojlanishida o‘qituvchi, ota-ona, tengdoshlar va mahalliy hamjamiyatning hamkorligi muhim o‘rin tutadi. Shu sababli OECD modelida **hamkor agentlik (Co-agency)** tamoyili ilgari surilib, ta’lim sifati barcha manfaatdor tomonlarning o‘zaro hamkorligi orqali ta’minlanishi ta’kidlanadi.

Dunyodagi har bir o‘quvchining rivojlanishi mustahkam ‘‘asosiy poydevorlar (Core Foundations)’’ga tayanadi. Ushbu poydevorlar savodxonlik, matematik savodxonlik, ma’lumotlar bilan ishlash, raqamli savodxonlik, jismoniy va ruhiy salomatlik, shuningdek ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Quyidagi kompetensiyalar XXI asrda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich shart hisoblanadi.

OECD Learning Compass 2030 modelida kompetensiya bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlarning uyg‘unlashgan tizimi sifatida talqin etiladi. Kompetensiya faqat nazariy bilimlarni egallashni emas, balki ularni murakkab va noaniq vaziyatlarda mas’uliyatli hamda samarali qo‘llash qobiliyatini ham ifodalaydi. Shuning uchun kompetensiyaga asoslangan ta’limning asosiy vazifasi o‘quvchilarni real hayot muammolarini hal qilishga tayyorlashdan iborat.

Modelning muhim tarkibiy qismi transformativ kompetensiyalardir. Ular o‘quvchilarga o‘zgaruvchan dunyoga moslashish bilan birga, uni ijobiy tomonga

o‘zgartirish imkonini beradi. OECD ushbu kompetensiyalarni uch guruhga ajratadi: **yangi qiymat yaratish**, **mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish** va **ziddiyatlar hamda qaror qabul qilishdagi murakkab vaziyatlarni muvofiqlashtirish**. Ushbu kompetensiyalar innovatsion fikrlash, ijodkorlik, axloqiy mas’uliyat, global fuqarolik va samarali muloqot kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Transformativ kompetensiyalarni rivojlantirish **Kutish – Harakat – Refleksiya (Anticipation–Action–Reflection, AAR)** sikli orqali amalga oshiriladi. Ushbu siklda o‘quvchi avvalo maqsadlarni belgilaydi va kelajakdagi vaziyatlarni oldindan tahlil qiladi, so‘ng rejalashtirilgan harakatlarni amalga oshiradi hamda yakunda o‘z faoliyatini tahlil qilib, xulosalar chiqaradi. Bu jarayon o‘quvchilarning metakognitiv fikrlashini, o‘z-o‘zini baholashini va uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydi.

OECD Learning Compass 2030 modelida ta’limning asosiy maqsadi ‘‘farovonlik (Well-being)’’ni ta’minlash hisoblanadi. Bunda farovonlik faqat iqtisodiy daromad bilan emas, balki ta’lim sifati, salomatlik, xavfsizlik, ekologik muhit, fuqarolik faolligi, mehnat va shaxsiy hayot muvozanati, ijtimoiy hamkorlik hamda hayotdan qoniqish kabi omillar bilan ham belgilanadi. Shu sababli ta’lim tizimi o‘quvchilarda ekologik madaniyat, ijtimoiy mas’uliyat va global fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Mazkur model har bir o‘quvchining individual rivojlanish trayektoriyasini tan oladi. O‘quvchilarning bilim darajasi, hayotiy tajribasi, oilaviy muhiti va qobiliyatlari turlicha bo‘lganligi sababli ularning ta’lim olish sur’ati ham bir xil bo‘lmaydi. Biroq barcha o‘quvchilarni birlashtiruvchi umumiy maqsad — shaxsiy va ijtimoiy farovonlikka erishishdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, OECD Learning Compass 2030 modeli XXI asr ta’limining zamonaviy konseptual asosini tashkil etadi. Mazkur model o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlarni uyg‘un rivojlantirish, transformativ kompetensiyalarni shakllantirish, o‘quvchi agentligini qo‘llab-quvvatlash hamda shaxsiy va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan. Ushbu yondashuv kompetensiyaga asoslangan ta’limni

rivojlantirish, o‘qituvchilarning XXI asr ko‘nikmalarini takomillashtirish va ta’lim sifatini oshirishning muhim metodologik asosi hisoblanadi.

P21 (Partnership for 21st Century Learning) modeli -XXI asrda globallashuv, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda mehnat bozoridagi o‘zgarishlar ta’lim tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Endilikda o‘quvchilardan faqat nazariy bilimlarni egallash emas, balki ularni amaliyotda qo‘llay olish, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, samarali muloqot qilish, jamoada ishlash va uzluksiz o‘zini rivojlantirish kompetensiyalariga ega bo‘lish talab etilmoqda. Mazkur ehtiyojlardan kelib chiqib, **Partnership for 21st Century Learning (P21)** tashkiloti tomonidan XXI asr ta’limining konseptual modeli ishlab chiqilgan.

P21 modeli pedagoglar, ta’lim sohasi ekspertlari, davlat boshqaruvi organlari hamda biznes vakillarining hamkorligida yaratilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi o‘quvchilarni zamonaviy hayot, mehnat faoliyati va fuqarolik jamiyatida muvaffaqiyatli ishtirok etishga tayyorlashdan iborat. Ushbu model bugungi kunda AQSh va boshqa ko‘plab mamlakatlarda keng qo‘llanilib, kompetensiyaga asoslangan ta‘limni rivojlantirishning samarali metodologik asoslaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

P21 konsepsiyasiga ko‘ra, XXI asr ta’limi to‘rtta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishga tayanadi.

Birinchi yo‘nalish — asosiy fanlar va XXI asr mavzulari bo‘lib, unda o‘quvchilar ona tili, xorijiy tillar, matematika, tabiiy fanlar, tarix, geografiya, san'at va boshqa fanlarni puxta egallash bilan bir qatorda global jarayonlar, moliyaviy va iqtisodiy savodxonlik, tadbirkorlik, fuqarolik mas'uliyati, sog‘lom turmush madaniyati hamda ekologik savodxonlik kabi fanlararo kompetensiyalarni ham rivojlantirishlari zarurligi ta’kidlanadi.

Ikkinchi yo‘nalish - ta’lim va innovatsion ko‘nikmalarni qamrab oladi. Mazkur kompetensiyalar XXI asrning eng muhim tayanch ko‘nikmalari bo‘lib, ular kreativlik va innovatsion fikrlash, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish, samarali muloqot hamda hamkorlikda ishlashni o‘z ichiga oladi. Aynan ushbu

kompetensiyalar o‘quvchilarning murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishi, yangi g‘oyalarni ilgari surishi va jamoa bilan samarali ishlashini ta'minlaydi.

Modelning uchinchi yo‘nalishi - axborot, media va raqamli texnologiyalar kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Zamonaviy axborot jamiyatida o‘quvchilar axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish, ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ma'lumotlarni tanqidiy baholash hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan xavfsiz va samarali foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari zarur.

To‘rtinchi yo‘nalish - hayotiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Ushbu kompetensiyalar tarkibiga moslashuvchanlik, tashabbuskorlik, o‘z-o‘zini boshqarish, ijtimoiy va madaniyatlararo muloqot, mahsuldorlik, javobgarlik, liderlik hamda mas'uliyat kabi sifatlar kiradi. Mazkur kompetensiyalar o‘quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyati va ijtimoiy hayotida muvaffaqiyat qozonishiga xizmat qiladi.

P21 modeli kompetensiyalarni samarali rivojlantirish uchun ta’lim tizimida qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlar mavjud bo‘lishi zarurligini ham ta’kidlaydi. Bunday mexanizmlar qatoriga XXI asr ta’lim standartlari, kompetensiyaga asoslangan baholash tizimi, zamonaviy o‘quv dasturlari va o‘qitish metodikasi, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi hamda innovatsion ta’lim muhiti kiradi. Ushbu komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning faolligini kuchaytirish va ularning zamonaviy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

Modelda o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi alohida ahamiyatga ega. XXI asr o‘qituvchisi nafaqat o‘z fanini mukammal bilishi, balki innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashi, raqamli vositalardan samarali foydalanishi, ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan asosda tashkil etishi hamda o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, kreativlik va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantira olishi zarur. Shuning uchun pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi P21 modelining asosiy shartlaridan biri sifatida qaraladi.

P21 modeli o‘quvchilarning bilimini baholashga ham yangicha yondashuvni taklif etadi. An’anaviy testlar bilan bir qatorda loyiha ishlari, amaliy topshiriqlar, kuzatuv va kompetensiyaga asoslangan baholash usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday baholash o‘quvchilarning nazariy bilimlari bilan birga ularning ijodkorligi, muammolarni hal etish qobiliyati, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini ham aniqlash imkonini beradi.

Umuman olganda, P21 modeli XXI asr ta’limining xalqaro miqyosda tan olingan konseptual asoslaridan biri hisoblanadi. Ushbu model ta’lim mazmunini zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga moslashtirish, o‘quvchilarda fan bilimlari bilan bir qatorda hayotiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish hamda pedagogik faoliyatni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘qituvchilarning XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida P21 modeli metodologik asos sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. U o‘qituvchilarga ta’limni kompetensiyaga yo‘naltirilgan, shaxsga moslashtirilgan va raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish imkonini beradi hamda ta’lim sifatini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi.

UNESCOning XXI asr kompetensiyalari modeli-UNESCO ta’limni barqaror rivojlanishning asosiy omili sifatida e’tirof etadi. Tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan ICT Competency Framework for Teachers **hamda** Education for Sustainable Development (ESD) hujjatlarida zamonaviy pedagog quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi:

- **raqamli savodxonlik;**
- **pedagogik innovatsiyalar;**
- **media savodxonlik;**
- **inklyuziv ta'limni tashkil etish;**
- **ekologik tafakkur;**
- **global fuqarolik**.

UNESCO modelida ta‘limning asosiy maqsadi shaxsning barqaror rivojlanish, inson huquqlari, tinchlik va umrbod ta‘lim tamoyillariga asoslangan kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

World Economic Forum modeli-World Economic Forum tomonidan e’lon qilinadigan **The Future of Jobs Report** hisobotlarida XXI asr mehnat bozorida eng muhim ko‘nikmalar aniqlab beriladi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **analitik fikrlash;**
- **kreativ tafakkur;**
- **murakkab muammolarni hal qilish;**
- **texnologik savodxonlik;**
- **moslashuvchanlik;**
- **liderlik;**
- **hissiy intellekt;**
- **umrbod o‘qish.**

Mazkur kompetensiyalar kelajak kasblarida muvaffaqiyat qozonishning asosiy omillari sifatida baholanadi.

DigCompEdu modeli: pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning xalqaro modeli bo‘lib XXI asrda raqamli texnologiyalar jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur kirib bordi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimining mazmuni, o‘qitish metodlari, baholash mexanizmlari hamda pedagoglarning kasbiy faoliyatiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Endilikda pedagogdan nafaqat o‘z fanini mukammal bilish, balki raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish, o‘quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirish va innovatsion ta‘lim muhitini yaratish ham talab etiladi. Ana shu ehtiyojlardan kelib chiqib, Yevropa Komissiyasi tomonidan DigCompEdu (Digital Competence Framework for Educators**)** modeli ishlab chiqilgan.

DigCompEdu modeli pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini aniqlash, baholash va rivojlantirishga xizmat qiluvchi xalqaro metodologik asos hisoblanadi. Mazkur model Yevropa Komissiyasining **Birlashgan Tadqiqot Markazi (Joint Research Centre – JRC)** tomonidan **Ta’lim, yoshlar, sport va madaniyat bo‘yicha Bosh direktorati (DG EAC)** topshirig‘i asosida ishlab chiqilgan. Modelni yaratishda Yevropaning turli mamlakatlaridan olimlar, universitet

professorlari, ta‘lim vazirliklari mutaxassislari, amaliyotchi pedagoglar hamda xalqaro ekspertlar ishtirok etgan. Dastlabki loyiha Twinning konferensiyalarida sinovdan o‘tkazilgan, onlayn ekspert muhokamalari orqali takomillashtirilgan va turli davlatlar tajribasi asosida boyitilgan. Shu sababli DigCompEdu bugungi kunda pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha eng ishonchli va ilmiy asoslangan xalqaro modellardan biri sifatida e‘tirof etiladi.

Modelning yaratilishiga zamonaviy jamiyatning raqamli transformatsiyasi asosiy omil bo‘ldi. Raqamli texnologiyalar odamlarning muloqot qilish, ishlash, bilim olish va axborot almashish usullarini tubdan o‘zgartirdi. Biroq raqamli muhitda voyaga yetayotgan yoshlarning texnologiyalardan samarali va xavfsiz foydalanish ko‘nikmalari o‘z-o‘zidan shakllanmaydi. Shu bois ta’lim tizimi o‘quvchilarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish bilan bir qatorda pedagoglarning ham ushbu sohadagi kasbiy salohiyatini muntazam oshirib borishi zarur. DigCompEdu aynan shu ehtiyojni qondirish uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, pedagoglarga o‘z raqamli kompetensiyalarini baholash, rivojlantirish va zamonaviy ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etishda metodik yo‘l-yo‘riq beradi.
DigCompEdu modeli pedagoglarning kasbiy faoliyatini qamrab oluvchi 22 ta kompetensiyani o‘z ichiga oladi. Ushbu kompetensiyalar 6 ta asosiy yo‘nalish bo‘yicha tizimlashtirilgan.

Birinchi yo‘nalish pedagogning kasbiy hamkorligi va professional rivojlanishiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda hamkasblar, ota-onalar, o‘quvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan raqamli vositalar orqali samarali muloqot qilish masalalari yoritiladi.

Ikkinchi yo‘nalish raqamli ta‘lim resurslarini tanlash, yaratish, moslashtirish va ulashishga qaratilgan.

Uchinchi yo‘nalish ta’lim jarayonini rejalashtirish va tashkil etishda raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llashni nazarda tutadi.

To‘rtinchi yo‘nalish baholash jarayonini raqamlashtirish, o‘quv natijalarini monitoring qilish va tahlil etishga xizmat qiladi.

Beshinchi yo‘nalishda o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish, individual ta’lim trayektoriyasini qo‘llab-quvvatlash va hamkorlikdagi o‘qitishni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Oltinchi yo‘nalish esa o‘quvchilarning axborot savodxonligi, media savodxonligi, raqamli xavfsizlik va raqamli fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni qamrab oladi.

Modelning muhim jihatlaridan biri pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish tizimidir. DigCompEdu oltita rivojlanish darajasini belgilaydi: **A1 – Boshlovchi**, **A2 – Tadqiqotchi**, **B1 – Integrator**, **B2 – Ekspert**, **C1 – Yetakchi** va **C2 – Novator**. Ushbu darajalar pedagoglarga o‘z kompetensiyalarini mustaqil baholash, mavjud imkoniyatlarini aniqlash hamda keyingi kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi.

DigCompEdu modeli faqat pedagoglarning raqamli ko‘nikmalarini tavsiflabgina qolmay, balki ta’lim siyosatini shakllantirish, pedagoglarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun ham metodologik asos vazifasini bajaradi. Model davlat organlari, ta’lim muassasalari va malaka oshirish markazlari tomonidan raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda, o‘quv dasturlarini takomillashtirishda hamda baholash mezonlarini yaratishda keng qo‘llanilishi mumkin.

DigCompEdu milliy ta’lim tizimlarini cheklashni emas, balki ularni qo‘llab-quvvatlashni maqsad qiladi. Model turli mamlakatlarning o‘ziga xos ta’lim sharoitlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda moslashtirilishi mumkin. Shu sababli u xalqaro tajriba va milliy yondashuvlarni uyg‘unlashtiruvchi universal metodologik platforma sifatida e’tirof etiladi.

Modelning ilmiy ishonchliligini ta’minlashda xalqaro ekspertlar, universitetlar, ilmiy markazlar, ta’lim vazirliklari, amaliyotchi pedagoglar hamda Yevropa Komissiyasining tegishli tuzilmalari faol ishtirok etgan. Dastlabki loyiha xalqaro seminarlar, ekspert muhokamalari va onlayn maslahatlashuvlar orqali bir necha bor takomillashtirilgan. Natijada DigCompEdu nazariy jihatdan puxta

asoslangan, amaliyotda sinovdan o‘tgan va zamonaviy ta’lim ehtiyojlariga mos model sifatida shakllandi.

Bugungi kunda DigCompEdu modeli pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha eng nufuzli xalqaro standartlardan biri hisoblanadi. Uning asosida o‘qituvchilar raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, innovatsion ta’lim muhitini yaratish, o‘quvchilarni XXI asr ko‘nikmalariga ega shaxs sifatida tarbiyalash hamda ta’lim sifatini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bois DigCompEdu modeli zamonaviy pedagogning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim metodologik manba bo‘lib, raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimini takomillashtirishning asosiy vositalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Xalqaro modellarni qiyosiy tahlili **1-jadval**

Model	Asosiy yo‘nalish	Ustuvor kompetensiyalar
OECD Learning Compass 2030	Shaxsiy va ijtimoiy farovonlik	Bilim, ko‘nikma, munosabat, qadriyat, transformativ kompetensiyalar
P21	Ta‘lim va innovatsiyalar	4K, axborot va media savodxonligi
ATC21S	Baholash va o‘qitish	Fikrlash, hamkorlik, AKT, fuqarolik
UNESCO	Barqaror rivojlanish	Raqamli, pedagogik va global kompetensiyalar
WEF	Kelajak mehnat bozori	Analitik fikrlash, kreativlik, moslashuvchanlik
DigCompEdu	Pedagogning raqamli kompetensiyasi	Raqamli pedagogika va baholash

XXI asr ko‘nikmalarining xalqaro modellari ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quv dasturlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish va pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish uchun muhim ilmiy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu modellar o‘rtasida ayrim farqlar mavjud bo‘lsada, ularning barchasi tanqidiy fikrlash, kreativlik, hamkorlik, kommunikativ kompetensiya, raqamli savodxonlik, fuqarolik mas’uliyati va umrbod ta’lim

Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari XX asrning ikkinchi yarmida shakllanib, keyinchalik xalqaro tashkilotlar tomonidan yanada rivojlantirildi. Xususan, UNESCO, OECD, Yevropa Ittifoqi, P21 (Partnership for 21st Century Learning), DigCompEdu va boshqa xalqaro modellar ta’lim jarayonini kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ta’lim oluvchi egallagan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishi, yangi vaziyatlarga moslasha olishi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda o‘z faoliyati natijalari uchun mas’uliyatni his qilishi zarur.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish texnologiyalari o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishni nazarda tutadi. An’anaviy ta’lim modelida pedagog asosiy axborot manbai sifatida faoliyat yuritsa, kompetensiyaviy yondashuvda u ta’lim jarayonining tashkilotchisi, yo‘naltiruvchisi va fasilitatori vazifasini bajaradi. O‘quvchi esa bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil izlovchi, tahlil qiluvchi va amaliyotga tatbiq etuvchi shaxs sifatida qaraladi. Bu yondashuv konstruktivistik ta'lim nazariyasiga asoslanib, bilimning faol o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish texnologiyalarining muhim xususiyatlaridan biri ta’limning amaliy yo‘naltirilganligidir. O‘quv mashg‘ulotlari real hayotiy vaziyatlar, kasbiy faoliyatga oid muammolar va amaliy topshiriqlar asosida tashkil etiladi. Natijada ta’lim oluvchilar nazariy bilimlarni hayotiy va kasbiy vaziyatlarda qo‘llashni o‘rganadilar. Bu esa ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammolarni hal etish va qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvda ta’lim jarayonini loyihalash alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalo, kutilayotgan o‘quv natijalari va shakllantirilishi lozim bo‘lgan

kompetensiyalar aniqlanadi. Keyinchalik ushbu natijalarga mos pedagogik metodlar, o‘quv topshiriqlari, ta'lim resurslari va baholash mezonlari tanlanadi. Bunday tizimli yondashuv ta'limning maqsadi, mazmuni, metodlari va baholash jarayoni o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta'minlaydi.

Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda interfaol pedagogik texnologiyalar alohida o‘rin egallaydi. Interfaol metodlar o‘quvchilarni faol fikrlashga, jamoada ishlashga va o‘z fikrini erkin ifodalashga undaydi. **‘‘Aqliy hujum’’, ‘‘Klaster’’, ‘‘INSERT’’, ‘‘Keys-stadi’’, ‘‘Debat’’, ‘‘Konseptual xarita’’, ‘‘Sinkveyn’’** kabi metodlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilar nafaqat bilim oladilar, balki uni amaliy vaziyatlarda qo‘llash tajribasini ham hosil qiladilar.

Muammoli ta’lim texnologiyasi kompetensiyaviy yondashuvning muhim tarkibiy qismidir. Muammoli vaziyatlar o‘quvchilarda izlanish ehtiyojini yuzaga keltiradi, ularni turli manbalardan axborot izlashga, tahlil qilishga va mustaqil xulosa chiqarishga undaydi. Bu jarayon davomida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, ijodkorligi va tadqiqotchilik qobiliyatlari rivojlanadi. Ayniqsa, XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishda muammoli ta’lim texnologiyasi samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Loyihaviy ta’lim texnologiyasi ham kompetensiyaviy yondashuvning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Loyiha faoliyati davomida o‘quvchilar muayyan muammoni hal etishga qaratilgan mahsulot yoki yechim yaratadilar. Jarayon davomida ular ma'lumot to‘plash, rejalashtirish, vazifalarni taqsimlash, jamoada ishlash, taqdimot qilish va o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu esa kreativ fikrlash, hamkorlik va liderlik kompetensiyalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda raqamli pedagogik texnologiyalar kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning ajralmas qismiga aylanmoqda. Elektron ta’lim platformalari, virtual sinflar, masofaviy ta’lim tizimlari, sun’iy intellekt vositalari, interaktiv taqdimotlar, virtual laboratoriyalar va simulyatorlardan foydalanish

ta’lim samaradorligini oshiradi. Raqamli vositalar yordamida o‘quvchilar mustaqil ta’lim olish, axborotni tanlash va tahlil qilish, media mahsulotlar yaratish hamda raqamli muloqot madaniyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Kompetensiyaviy yondashuvda baholash tizimi ham an’anaviy nazorat shakllaridan farq qiladi. Asosiy e’tibor ta’lim oluvchining egallagan bilimlarini real faoliyatda qo‘llay olish darajasini aniqlashga qaratiladi. Shu sababli formativ baholash, summativ baholash, rubrikalar, elektron portfoliolar, loyiha ishlari, amaliy topshiriqlar va o‘zaro baholash kabi zamonaviy baholash texnologiyalari keng qo‘llaniladi. Bunday yondashuv o‘quvchining rivojlanish dinamikasini kuzatish va kompetensiyalarni shakllantirish darajasini aniqlash imkonini beradi.

Bloom taksonomiyasi kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish texnologiyalarini ilmiy asoslashda muhim metodologik vosita hisoblanadi. Taksonomiyaning bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish bosqichlari o‘quvchilarni oddiy bilim egallashdan yuqori darajadagi ijodiy va tahliliy faoliyatga olib chiqadi. Ayniqsa, tahlil qilish, baholash va yaratish bosqichlari XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida ham kompetensiyaviy yondashuv ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va malaka talablari kompetensiyalarni rivojlantirish tamoyillari asosida takomillashtirilmoqda. Pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, raqamli pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro tajribalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa ta’lim sifatini oshirish, xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘qitish texnologiyalari zamonaviy ta’limning ilmiy-metodologik asosini tashkil etadi. Ushbu texnologiyalar ta’lim oluvchilarda nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish, mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish, hamkorlikda ishlash,

innovatsion g‘oyalarni ilgari surish va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvni ta’lim amaliyotiga keng joriy etish o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy salohiyatini yuksaltirish, pedagoglarning metodik mahoratini rivojlantirish hamda XXI asr talablariga javob beradigan raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Interfaol pedagogik texnologiyalar

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga va jamoada samarali faoliyat yuritishga o‘rgatish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. An’anaviy ta’limda asosiy e’tibor bilimlarni tayyor holda o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy ta’lim paradigmasida o‘quvchining faol ishtiroki, mustaqil izlanishi va amaliy faoliyati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan interfaol pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini tashkil etishning samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

“Interfaol” tushunchasi o‘zaro faol harakat, hamkorlik va muloqotga asoslangan jarayonni anglatadi. Interfaol pedagogik texnologiyalar esa o‘qituvchi va o‘quvchi, shuningdek, o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi asosida ta’lim mazmunini faol o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan metod, usul va vositalar tizimidir. Bunday texnologiyalarda o‘quvchi ta’lim jarayonining passiv obyekti emas, balki faol subyekti sifatida ishtirok etadi. O‘qituvchi esa tayyor bilimni beruvchi emas, balki o‘quv faoliyatini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va natijalarni tahlil qiluvchi pedagog sifatida faoliyat olib boradi.

Interfaol pedagogik texnologiyalarning ilmiy-metodik asoslari konstruktivizm, faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va hamkorlik pedagogikasi tamoyillari bilan chambarchas bog‘liq. Konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, bilim o‘quvchiga tayyor shaklda berilmaydi, balki u o‘z tajribasi, faoliyati, muloqoti va izlanishlari orqali bilimni konstruksiya qiladi. Shu sababli interfaol metodlardan foydalanishda o‘quvchining avvalgi bilimlari, hayotiy tajribasi, qiziqishlari va individual imkoniyatlarini hisobga olish muhimdir.

Interfaol pedagogik texnologiyalarning asosiy maqsadi o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga faol jalb etish, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini yaratish hamda kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsad XXI asr ta’limining asosiy talablariga to‘liq mos keladi. Chunki bugungi kunda o‘quvchidan faqat ma’lum hajmdagi bilimni egallash emas, balki axborotni izlash va baholash, muammolarni hal qilish, ijodiy fikrlash, jamoada ishlash, samarali muloqot qilish va o‘z faoliyatini baholash kabi ko‘nikmalar ham talab etiladi.

Interfaol texnologiyalarning muhim xususiyatlaridan biri muloqotga asoslangan ta’limni tashkil etishdir. O‘quvchilar o‘z fikrlarini bayon qilish, boshqa ishtirokchilarning qarashlarini tinglash, dalillarni tahlil qilish va o‘z pozitsiyasini asoslash orqali kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradilar. Bunday jarayonda turli fikrlarning mavjudligi tabiiy holat sifatida qabul qilinadi. O‘qituvchi esa o‘quvchilarning fikrlarini tanqid qilishdan ko‘ra, ularni dalillar asosida fikrlashga yo‘naltiradi.

Interfaol metodlarning eng ko‘p qo‘llaniladigan turlaridan biri **“Aqliy hujum”** metodidir. Mazkur metod muayyan muammo yuzasidan imkon qadar ko‘p g‘oya va takliflarni ishlab chiqishga qaratiladi. Metodning dastlabki bosqichida o‘quvchilarning har qanday g‘oyasi tinglanadi va baholanmaydi. Keyingi bosqichda ilgari surilgan g‘oyalar tahlil qilinib, eng maqbul variantlar ajratib olinadi. “Aqliy hujum” o‘quvchilarning kreativ fikrlashini, erkin fikr bildirishini va muammoga turli nuqtayi nazardan yondashishini rivojlantiradi.

“Klaster” texnologiyasi ham o‘quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlashini rivojlantirishda samarali vositadir. Ushbu metodda asosiy tushuncha markazga joylashtirilib, u bilan bog‘liq tushunchalar tarmoqlar shaklida ifodalanadi. Natijada o‘quvchi mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini tizimlashtiradi va ular o‘rtasidagi aloqalarni aniqlaydi. Klasterdan yangi mavzuni o‘rganishdan oldin o‘quvchilarning avvalgi bilimlarini aniqlash, mavzuni mustahkamlash va yakuniy umumlashtirish bosqichlarida foydalanish mumkin.

Keys-stadi texnologiyasi esa real yoki real hayotga yaqin muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga asoslanadi. O‘quvchilarga muayyan vaziyat taqdim etilib, undan kelib chiqadigan muammoni aniqlash, sabablarni tahlil qilish va mumkin bo‘lgan yechimlarni ishlab chiqish topshiriladi. Keys-stadi o‘quvchilarning analitik fikrlashi, qaror qabul qilish, muammolarni hal etish va amaliy bilimlardan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, kasbiy ta’lim, pedagogika, psixologiya, iqtisodiyot va boshqaruv yo‘nalishlarida ushbu texnologiyaning amaliy ahamiyati yuqori.

Debat va munozara texnologiyalari - o‘quvchilarning kommunikativ, tanqidiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Munozara jarayonida o‘quvchi o‘z fikrini dalillar bilan asoslash, qarama-qarshi fikrni tinglash, savollarga javob berish va mantiqiy xulosa chiqarishni o‘rganadi. Bunday faoliyat o‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish bilan birga, turli nuqtayi nazarlarni hurmat qilish ko‘nikmasini ham rivojlantiradi.

Loyiha texnologiyasi - nterfaol ta’limning yuqori samarali shakllaridan biri hisoblanadi. Loyiha asosida o‘qitishda o‘quvchilar muayyan muammoni mustaqil yoki guruhda o‘rganadilar va yakunda amaliy mahsulot yaratadilar. Loyiha jarayonida mavzuni tanlash, maqsadni belgilash, axborot izlash, vazifalarni taqsimlash, natijalarni tahlil qilish va taqdimot o‘tkazish kabi bosqichlar amalga oshiriladi. Shu sababli loyiha texnologiyasi bir vaqtning o‘zida kreativlik, hamkorlik, kommunikatsiya, tanqidiy fikrlash va mas’uliyat kabi bir nechta XXI asr ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Interfaol pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda kichik guruhlarda ishlash ham muhim ahamiyatga ega. Guruhli faoliyat o‘quvchilar o‘rtasida vazifalarni taqsimlash, o‘zaro yordam ko‘rsatish, kelishuvga erishish va umumiy natija uchun javobgarlikni his qilish imkonini beradi. Bunday faoliyat ayniqsa hamkorlik kompetensiyasini shakllantirishda muhimdir. O‘qituvchi guruh ishini tashkil etishda guruh tarkibini, topshiriqlarning murakkablik darajasini, vaqt chegarasini va baholash mezonlarini oldindan belgilashi lozim.

Interfaol texnologiyalarning samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogning metodik mahoratiga bog‘liq. Interfaol metoddan foydalanishning o‘zi avtomatik ravishda yuqori ta’lim natijasini ta’minlamaydi. Metod ta’lim maqsadi, o‘quvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi, fan mazmuni va kutilayotgan natijalarga mos tanlanishi kerak. Masalan, yangi tushunchalarni shakllantirishda muammoli ta’lim va aqliy hujumdan, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda keys-stadidan, ijodiy faoliyatni tashkil etishda loyiha metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Interfaol ta’limda baholash ham o‘ziga xos xususiyatga ega. O‘quvchining faqat yakuniy natijasi emas, balki ta’lim jarayonidagi faolligi, fikrlash jarayoni, hamkorlikdagi ishtiroki, mustaqil qaror qabul qilishi va o‘z faoliyatini tahlil qilishi ham hisobga olinadi. Shu maqsadda o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro baholash, rubrika, portfolio va formativ baholash vositalaridan foydalanish mumkin. Bunday baholash o‘quvchiga o‘zining kuchli va rivojlantirilishi zarur bo‘lgan jihatlarini anglash imkonini beradi.

Interfaol pedagogik texnologiyalarni raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirish zamonaviy ta’limning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Elektron ta’lim platformalari, onlayn testlar, virtual doskalar, interaktiv taqdimotlar, videokonferensiyalar va boshqa raqamli vositalar interfaol ta’limni yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Bunda raqamli texnologiya maqsad emas, balki pedagogik maqsadga erishish vositasi sifatida qaralishi kerak.

Shuningdek, interfaol texnologiyalar **Blum taksonomiyasi** asosida tashkil etilganda ta’limning kognitiv darajalarini izchil rivojlantirish imkoniyati ortadi. Masalan, **“bilish”** va **“tushunish”** bosqichlarida savol-javob va klaster metodlaridan, “qo‘llash” bosqichida amaliy topshiriqlardan, **“tahlil qilish”** bosqichida keys-stadidan, **“baholash”** bosqichida debat va munozaralardan, **“yaratish”** bosqichida esa loyiha texnologiyasidan foydalanish mumkin. Shu tariqa interfaol texnologiyalar nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Interfaol pedagogik texnologiyalarni tizimli ravishda qo‘llash natijasida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, hamkorlik, muammolarni hal etish, tashabbuskorlik, mas’uliyat va raqamli savodxonlik kabi XXI asr ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuvning asosiy talablariga mos keladi. O‘quvchi o‘zlashtirgan bilimlarini real vaziyatlarda qo‘llash, turli muammolarga yechim topish va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

SHuni takidlab aytish kerakki**,** interfaol pedagogik texnologiyalar zamonaviy ta’limni o‘quvchi markaziga yo‘naltirish, uning faol ishtirokini ta’minlash va kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasidir. Ushbu texnologiyalar orqali ta’lim jarayoni hamkorlik, muloqot, izlanish, muammolarni hal qilish va ijodiy faoliyatga asoslanadi. Ularni kompetensiyaviy yondashuv, Bloom taksonomiyasi va raqamli ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish esa ta’lim samaradorligini yanada oshiradi. Shuning uchun zamonaviy pedagog interfaol metodlarni shunchaki alohida usul sifatida emas, balki **maqsad–mazmun–metod–faoliyat–baholash–natija** tizimi bilan uzviy bog‘langan yaxlit pedagogik texnologiya sifatida qo‘llashi zarur.

Muammoli va loyihaviy ta’lim texnologiyalari

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi emas, balki mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi, turli manbalar bilan ishlashi, amaliy yechimlar ishlab chiqishi va o‘z faoliyati natijalarini baholay olishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan muammoli va loyihaviy ta’lim texnologiyalari kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning samarali pedagogik vositalari hisoblanadi. Mazkur texnologiyalar o‘quvchini ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirib, bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi - o‘quvchilarning bilish faoliyatini muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni mustaqil ravishda hal etish asosida tashkil etishga yo‘naltiriladi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchiga tayyor javobni bermaydi, balki unda savol, qiziqish va izlanish ehtiyojini yuzaga keltiradigan

vaziyatni yaratadi. O‘quvchi mavjud bilimlari asosida muammoni aniqlaydi, taxminlar ilgari suradi, zarur axborotni izlaydi, turli yechimlarni taqqoslaydi va asoslangan xulosaga keladi.

Muammoli ta’limning pedagogik ahamiyati shundaki, u o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil, mustaqil qaror qabul qilish, ijodkorlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishda ushbu texnologiyaning imkoniyatlari yuqori. Chunki real hayotda inson ko‘pincha tayyor javobga ega bo‘lmagan vaziyatlarga duch keladi. Ta’lim jarayonida bunday vaziyatlarni modellashtirish o‘quvchini kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi.

Muammoli ta’limni tashkil etishda o‘qituvchi, avvalo, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos muammoli vaziyatni tanlashi lozim. Muammo haddan tashqari oson bo‘lsa, o‘quvchida izlanish ehtiyoji yuzaga kelmaydi; haddan tashqari murakkab bo‘lsa, o‘quvchi mustaqil yechim topishda qiynalishi mumkin. Shuning uchun muammoli topshiriq o‘quvchining mavjud bilimlari bilan yangi bilimlar o‘rtasida intellektual ziddiyatni yuzaga keltiradigan darajada bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Muammoli ta’lim jarayonida savol-javob, muammoli vaziyat, tadqiqot topshirig‘i, keys, munozara, tajriba va amaliy masalalardan foydalanish mumkin. Masalan, o‘qituvchi muayyan vaziyatni taqdim etib, **“Nima sababdan bunday holat yuzaga keldi?”**, **“Muammoni qanday yo‘l bilan hal qilish mumkin?”, “Qaysi yechim samaraliroq?”** kabi savollarni qo‘yishi mumkin. Bunday savollar o‘quvchini oddiy eslab qolishdan ko‘ra, tahlil qilish va xulosa chiqarishga undaydi.

Loyihaviy ta’lim texnologiyasi - esa o‘quvchilarning muayyan amaliy yoki nazariy muammoni mustaqil yoki guruhda o‘rganishi va yakunda aniq natija yoki mahsulot yaratishiga asoslangan ta’lim texnologiyasidir. Loyiha natijasi taqdimot, tadqiqot ishi, model, maket, elektron mahsulot, metodik tavsiya, videorolik yoki boshqa amaliy shaklda namoyon bo‘lishi mumkin.

Loyihaviy ta’limning asosiy afzalligi shundaki, unda o‘quvchi bilimni faqat nazariy jihatdan o‘zlashtirib qolmay, balki uni amaliy faoliyatda qo‘llaydi. Loyiha

ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar ma’lumot to‘playdi, axborot manbalarini tahlil qiladi, vazifalarni rejalashtiradi, guruh a’zolari bilan hamkorlik qiladi, vaqtni boshqaradi va yakuniy natijani taqdim etadi. Natijada bir vaqtning o‘zida bir nechta kompetensiyalar rivojlanadi.

Loyihaviy ta’lim odatda - muammoni aniqlash, loyiha maqsadini belgilash, rejalashtirish, axborot va materiallarni yig‘ish, amaliy faoliyatni amalga oshirish, natijani taqdim etish va refleksiya bosqichlari asosida tashkil etiladi. Har bir bosqich o‘quvchining mustaqil faoliyatini talab qiladi. O‘qituvchi esa loyiha jarayonida maslahat beruvchi va yo‘naltiruvchi sifatida ishtirok etadi.

Loyihaviy ta’limda guruhli faoliyatning mavjudligi hamkorlik va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilar vazifalarni o‘zaro taqsimlaydi, bir-birining fikrlarini tinglaydi, kelishuvga erishadi va umumiy natija uchun javobgarlikni his qiladi. Shu bilan birga, loyiha faoliyati o‘quvchilarda tashabbuskorlik, liderlik, mas’uliyat va vaqtni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Muammoli va loyihaviy ta’lim texnologiyalari o‘zaro chambarchas bog‘liq. Muammoli ta’limda asosiy e’tibor muammoni anglash va yechimini izlashga qaratilsa, loyihaviy ta’limda ushbu muammoni chuqur o‘rganish va aniq mahsulot yoki amaliy yechim yaratish ustuvor hisoblanadi. Shu sababli dars jarayonida avval muammoli vaziyat yaratib, keyinchalik o‘quvchilarni ushbu muammo asosida loyiha faoliyatiga yo‘naltirish mumkin.

Yuqoridagi texnologiyalarni qo‘llashda baholash ham faqat yakuniy natija bilan cheklanmasligi kerak. O‘quvchining muammoni aniqlashi, axborot izlash jarayoni, guruhdagi ishtiroki, mustaqil qaror qabul qilishi, ijodiy yondashuvi va yakuniy natijani himoya qila olishi ham baholanishi lozim. Bunda formativ baholash, o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro baholash, portfolio va mezonli baholash samarali vositalar sifatida xizmat qiladi.

Muammoli va loyihaviy ta’lim texnologiyalari kompetensiyaviy ta’limning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchilarni real hayot va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar orqali o‘quvchilarda tanqidiy va

kreativ fikrlash, muammolarni hal qilish, kommunikatsiya, hamkorlik, tashabbuskorlik va mas’uliyat kabi XXI asr ko‘nikmalari shakllanadi. Ularni raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar va Bloom taksonomiyasi bilan uyg‘unlashtirish ta’lim jarayonining mazmuni va samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

XXI asr ko‘nikmalarini baholash texnologiyalari

XXI asr ta’limining asosiy maqsadi o‘quvchilarga faqat nazariy bilimlarni berish bilan cheklanib qolmay, balki ularni real hayotda qo‘llay olish, mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, samarali muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, ijodiy yondashish va raqamli muhitdan oqilona foydalanishga tayyorlashdan iborat. Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimida o‘quv natijalarini baholashga bo‘lgan yondashuv ham o‘zgarib bormoqda. An’anaviy baholash asosan o‘quvchining ma’lumoti va faktlarni qay darajada eslab qolganini aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, XXI asr ko‘nikmalarini baholash texnologiyalari bilimlarni amaliyotda qo‘llash, tahlil qilish, yaratish, hamkorlik qilish va real muammolarni hal etish qobiliyatlarini aniqlashga qaratiladi.

XXI asr ko‘nikmalarini baholash texnologiyalari — bu o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikatsiya, hamkorlik, axborot va media savodxonligi, raqamli kompetensiya, muammoni hal qilish, moslashuvchanlik, tashabbuskorlik hamda o‘z-o‘zini boshqarish kabi kompetensiyalarini aniqlashga xizmat qiluvchi metod, vosita va baholash strategiyalari majmuasidir. Bunday baholashda o‘quvchining faqat **“nimani bilishi”** emas, balki **“bilganini qanday qo‘llashi”** va **“yangi vaziyatda qanday harakat qilishi”** ham muhim hisoblanadi.

XXI asr ko‘nikmalarini baholashning asosiy xususiyatlaridan biri kompetensiyaviy yondashuv bilan bog‘liq. Kompetensiya bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlarning muayyan vaziyatda yaxlit holda namoyon bo‘lishini anglatadi. Shuning uchun kompetensiyani baholashda bitta test savoli bilan cheklanib qolish yetarli emas. O‘quvchiga muammoli vaziyat, amaliy topshiriq, loyiha, tadqiqot yoki ijodiy faoliyat berilib, uning faoliyat jarayoni va yakuniy natijasi kompleks ravishda baholanadi.

Bunday yondashuvda formativ va summativ baholash bir-birini to‘ldiradi. Formativ baholash o‘quvchining ta’lim jarayonidagi rivojlanishini muntazam kuzatish, xatolarini aniqlash va o‘z vaqtida fikr-mulohaza berishga xizmat qiladi. Summativ baholash esa ma’lum bir mavzu, bo‘lim yoki ta’lim bosqichi yakunida erishilgan natijalarni aniqlaydi. XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishda formativ baholashning ahamiyati ayniqsa yuqori, chunki o‘quvchi ko‘nikmasining rivojlanishi muntazam kuzatish va qayta aloqa orqali ta’minlanadi.

Kriterial baholash XXI asr ko‘nikmalarini aniqlashda samarali texnologiyalardan biridir. Bunda o‘quvchining faoliyati oldindan belgilangan aniq mezonlar asosida baholanadi. Masalan, “Tanqidiy fikrlash” ko‘nikmasini baholashda muammoni to‘g‘ri aniqlash, dalillarni tahlil qilish, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash va asoslangan xulosa chiqarish kabi mezonlardan foydalanish mumkin. “Kommunikatsiya” ko‘nikmasida esa fikrni aniq ifodalash, tinglash, savollarga javob berish va muloqot madaniyatiga rioya qilish mezonlari belgilanadi.

XXI asr ko‘nikmalarini baholashda rubrikalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Rubrika — o‘quvchi faoliyatini aniq mezonlar va darajalar asosida baholash imkonini beruvchi vositadir. Masalan, loyiha ishini baholashda muammoning dolzarbligi, maqsadning aniqligi, axborotlardan foydalanish, ijodkorlik, guruhdagi hamkorlik, yakuniy mahsulot sifati va taqdimot mahorati alohida mezon sifatida belgilanadi. Har bir mezon bo‘yicha boshlang‘ich, rivojlanayotgan, yaxshi va yuqori darajalar kabi ko‘rsatkichlar berilishi mumkin.

Portfolio baholash ham XXI asr ko‘nikmalarini aniqlashning samarali usullaridan biridir. Portfolio o‘quvchining ma’lum vaqt davomida bajargan ishlari, loyihalari, ijodiy mahsulotlari, tadqiqot natijalari, refleksiyalari va yutuqlarini tizimli ravishda jamlash imkonini beradi. Portfolio orqali o‘quvchining bir martalik natijasi emas, balki uning rivojlanish dinamikasi aniqlanadi. Ayniqsa, kreativlik, mustaqil ishlash, raqamli kompetensiya va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini baholashda ushbu texnologiyaning imkoniyatlari katta.

Loyihaviy baholash XXI asr ko‘nikmalarini real faoliyat orqali aniqlash imkonini beradi. O‘quvchilarga muayyan muammoni o‘rganish va uning yechimini ishlab chiqish topshiriladi. Jarayon davomida ular axborot izlaydi, tahlil qiladi, guruhda ishlaydi, vazifalarni taqsimlaydi va yakuniy mahsulot yaratadi. Shu sababli loyiha natijasi orqali bir vaqtning o‘zida kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, hamkorlik va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini baholash mumkin.

Muammoli topshiriqlar va keys-stadi ham zamonaviy baholash vositalari qatoriga kiradi. Bunda o‘quvchiga real yoki real hayotga yaqin vaziyat taqdim etiladi. U vaziyatni tahlil qilib, muammoni aniqlashi, turli yechimlarni taklif qilishi va o‘z qarorini dalillar bilan asoslab berishi kerak. Bunday topshiriqlar o‘quvchining tayyor bilimni takrorlash emas, balki undan yangi vaziyatda foydalanish qobiliyatini aniqlaydi.

O‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. O‘quvchi o‘z faoliyatini baholash orqali kuchli va zaif tomonlarini anglaydi, kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi. O‘zaro baholashda esa o‘quvchilar bir-birining ishlarini belgilangan mezonlar asosida tahlil qiladi. Bu jarayon ularda mas’uliyat, xolislik, muloqot, refleksiya va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Raqamli baholash texnologiyalari ham zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishidir. Elektron testlar, onlayn viktorinalar, elektron portfolio, raqamli rubrikalar, interaktiv topshiriqlar va ta’lim platformalari o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini tezkor aniqlash imkonini beradi. Raqamli baholashning afzalligi natijalarni tezkor qayta ishlash, xatolarni aniqlash va o‘quvchiga individual fikr-mulohaza berish imkoniyatidir.

Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalari baholash jarayonining yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Sun’iy intellekt yordamida o‘quvchilarning yozma ishlari, topshiriqlarni bajarish dinamikasi va ayrim o‘quv faoliyatlari tahlil qilinishi mumkin. U o‘quvchining individual ehtiyojlariga mos tavsiyalar berishda yordam beradi. Biroq sun’iy intellekt asosidagi baholash natijalari pedagogik nuqtayi

nazardan tekshirilishi, inson omili va o‘qituvchining professional xulosasi saqlanib qolishi zarur.

XXI asr ko‘nikmalarini baholashda autentik baholash alohida o‘rin tutadi. Autentik baholash o‘quvchining bilim va ko‘nikmalarini real hayotga yaqin vaziyatlarda namoyon etishini talab qiladi. Masalan, o‘quvchiga oddiy “tadbirkorlik nima?” degan savol berish o‘rniga, kichik biznes loyihasini ishlab chiqish topshirilishi mumkin. Bunda o‘quvchi iqtisodiy bilimlarini qo‘llaydi, ma’lumotlarni tahlil qiladi, hisob-kitob qiladi, ijodiy g‘oya taklif etadi va o‘z loyihasini himoya qiladi.

XXI asr ko‘nikmalarini baholashda 4K modeli — kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya — alohida ahamiyat kasb etadi. Kreativlikni baholashda o‘quvchining yangi va original g‘oyalar ishlab chiqishi; tanqidiy fikrlashda dalillarni tahlil qilishi va asoslangan xulosa chiqarishi; kommunikatsiyada o‘z fikrini aniq va tushunarli ifodalashi; hamkorlikda esa guruh bilan samarali ishlashi va umumiy natijaga hissa qo‘shishi hisobga olinadi.

XXI asr ko‘nikmalarini baholash texnologiyalarini samarali tashkil etish uchun o‘qituvchi baholash mezonlarini oldindan belgilashi, topshiriqlarni o‘quv maqsadlariga moslashtirishi va o‘quvchilarga aniq qayta aloqa berishi zarur. Baholash jarayoni o‘quvchini jazolash yoki faqat ball qo‘yish vositasi emas, balki rivojlantiruvchi pedagogik mexanizm sifatida tashkil etilishi kerak. XXI asr ko‘nikmalarini baholash texnologiyalari an’anaviy bilimni tekshirishdan kompetensiyalarni aniqlashga qaratilgan kompleks tizimga o‘tishni nazarda tutadi. Muammoli topshiriqlar, loyiha, portfolio, rubrika, autentik baholash, o‘z-o‘zini va o‘zaro baholash, raqamli platformalar hamda sun’iy intellektga asoslangan vositalar o‘quvchining real faoliyatdagi imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bunday baholash tizimi o‘quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashi, kommunikatsiyasi, hamkorligi, raqamli savodxonligi, muammolarni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning o‘z ta’lim jarayoniga mas’uliyatli munosabatini ham shakllantiradi.

3-§. Blum taksonomiyasi va 4K modeli asosida o‘qituvchilarning yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi ta’lim sifatini ta’minlashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda o‘qituvchidan faqat fan bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lish emas, balki mazkur bilimlarni tahlil qilish, yangi pedagogik vaziyatlarda qo‘llash, muammolarga mustaqil yechim topish, innovatsion g‘oyalarni ilgari surish, hamkasblar va o‘quvchilar bilan samarali hamkorlik qilish kabi yuqori darajadagi intellektual va kommunikativ faoliyatni amalga oshirish talab etiladi.

Shu nuqtayi nazardan, o‘qituvchilarning yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda **Blum taksonomiyasi** va **4K modelining** integratsiyasi muhim ilmiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi. Bloom taksonomiyasi o‘qituvchining kognitiv faoliyatini oddiy bilimlarni eslab qolishdan boshlab, tahlil qilish, baholash va yangi pedagogik mahsulot yaratishgacha bo‘lgan bosqichlarda rivojlantirish imkonini beradi. 4K modeli esa kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya kabi zamonaviy kompetensiyalarni bir butun tizim sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur ikki yondashuvning uyg‘unligi o‘qituvchini tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi subyektdan mustaqil fikrlaydigan, pedagogik muammolarni tahlil qila oladigan, asoslangan qaror qabul qiladigan, innovatsion yechimlar yaratadigan va jamoaviy faoliyatni samarali tashkil eta oladigan professional mutaxassis darajasiga olib chiqishga imkon beradi.

1. Yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarining mazmun-mohiyati

Yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalari shaxsning mavjud bilimlarni shunchaki takrorlashidan farqli ravishda, ularni yangi vaziyatlarda tahlil qilish, baholash, qayta tashkil etish va yangi bilim yoki mahsulot yaratishda qo‘llash qobiliyatini anglatadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan yuqori darajadagi fikrlash quyidagi faoliyatlarni o‘z ichiga oladi:

- muammoni aniqlash;
- muammoning sabablarini tahlil qilish;
- turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash;
- dalillarni baholash;
- muqobil yechimlarni ishlab chiqish;
- mustaqil qaror qabul qilish;
- yangi pedagogik g‘oyalarni yaratish;
- mavjud metodlarni takomillashtirish;
- o‘z faoliyatini refleksiv tahlil qilish.

O‘qituvchi uchun yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalari alohida ahamiyatga ega. Chunki pedagogik jarayon doimo tayyor va bir xil vaziyatlardan iborat emas. Har bir sinf, o‘quvchi, mavzu yoki ta’limiy muammo o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi.

Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi pasayganini kuzatdi. Oddiy yondashuvda u faqat qo‘shimcha topshiriqlar berishi mumkin. Yuqori darajadagi fikrlashga ega o‘qituvchi esa avvalo muammoning sabablarini aniqlaydi, o‘quvchilarning ehtiyojlarini o‘rganadi, mavjud metodlarni tahlil qiladi, muqobil strategiyalarni ishlab chiqadi, ularni sinovdan o‘tkazadi va natijalarni baholaydi.

Demak, yuqori darajadagi fikrlash o‘qituvchining pedagogik faoliyatida muammoni ko‘rishdan uning innovatsion yechimini yaratishgacha bo‘lgan intellektual jarayon**ni** qamrab oladi.

2. Blum taksonomiyasining yuqori darajadagi fikrlashni rivojlantirishdagi o‘rni

Bloom taksonomiyasi ta’lim maqsadlarini kognitiv murakkablik darajasiga ko‘ra tizimlashtirish imkonini beruvchi pedagogik modeldir. Uning qayta ko‘rib chiqilgan variantida kognitiv faoliyat quyidagi oltita bosqich orqali ifodalanadi:

1. **Eslab qolish**;
2. **Tushunish**;
3. **Qo‘llash**;

4. **Tahlil qilish**;

5. **Baholash**;

6. **Yaratish**.

Dastlabki uch bosqich ko‘proq fundamental bilimlarni egallash va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lsa, **tahlil qilish, baholash va yaratish** yuqori darajadagi fikrlashning asosiy ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

1.Tahlil qilish

Tahlil qilish bosqichida o‘qituvchi ma’lumot yoki pedagogik vaziyatni tarkibiy qismlarga ajratadi, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlaydi va muammoning sabablarini o‘rganadi.

Masalan:

“Nima sababdan o‘quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etmayapti?” savoliga javob izlashda o‘qituvchi:

- o‘quvchilarning motivatsiyasini;
- dars metodlarini;
- topshiriqlarning murakkabligini;
- o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikatsiyani;
- sinf muhitini;
- baholash usullarini

kompleks ravishda tahlil qilishi mumkin.

2. Baholash

Baholash bosqichida o‘qituvchi mavjud g‘oya, metod yoki pedagogik qarorning samaradorligini belgilangan mezonlar asosida aniqlaydi.

Masalan, bir nechta dars metodlari taklif qilinganda o‘qituvchi ularni:

- samaradorligi;
- amaliy qo‘llash imkoniyati;
- o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mosligi;
- vaqt va resurs talabi;
- kutilayotgan natija

bo‘yicha baholashi mumkin.

3. Yaratish

Yaratish Bloom taksonomiyasining eng yuqori bosqichi bo‘lib, unda o‘qituvchi mavjud bilim va tajribalarini yangi kombinatsiyada birlashtirib, yangi pedagogik mahsulot yoki yechim yaratadi.

Masalan:

- yangi dars modeli;
- innovatsion metod;
- muammoli topshiriqlar tizimi;
- elektron ta’lim resursi;
- loyiha;
- metodik tavsiya;
- diagnostik vosita

ishlab chiqish yaratish bosqichiga misol bo‘ladi.

3. 4K modelining yuqori darajadagi fikrlash bilan bog‘liqligi

4K modeli zamonaviy ta’limda o‘quvchi va pedagog uchun zarur bo‘lgan to‘rtta muhim ko‘nikmani ifodalaydi:

Kreativlik — yangi va original g‘oyalarni yaratish.

Kritik fikrlash — axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash va asoslangan xulosa chiqarish.

Kommunikatsiya — o‘z fikrini aniq ifodalash va boshqalarning fikrini tinglash.

Kollaboratsiya — umumiy maqsadga erishish uchun jamoada samarali hamkorlik qilish.

Mazkur ko‘nikmalar bir-biridan alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq holda rivojlanadi.

Masalan, pedagogik muammoni hal qilish jarayonida o‘qituvchi avvalo muammoni tanqidiy fikrlash orqali tahlil qiladi. Keyin bir nechta yechimlarni kreativlik asosida ishlab chiqadi. Ushbu g‘oyalarni hamkasblar bilan muhokama qilishda kommunikatsiya zarur bo‘ladi. Eng maqbul yechimni jamoa bilan birgalikda amalga oshirishda esa kollaboratsiya ko‘nikmasi namoyon bo‘ladi.

Shuning uchun 4K modeli yuqori darajadagi fikrlashni amaliy faoliyat bilan bog‘lovchi kompetensiyaviy asos sifatida qaralishi mumkin.

4. Bloom taksonomiyasi va 4K modelining integratsion imkoniyatlari

Bloom taksonomiyasi va 4K modelini uyg‘unlashtirish o‘qituvchilarning yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini tizimli ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

Blum bosqichi	**O‘qituvchi faoliyati**	**4K ko‘nikmasi**
Eslab qolish	Pedagogik tushunchalarni esga tushirish	Kommunikatsiya
Tushunish	Nazariy tushunchalarni izohlash	Kommunikatsiya
Qo‘llash	Metodlarni pedagogik vaziyatda qo‘llash	Kollaboratsiya
Tahlil	Muammoli vaziyatni sabab va oqibatlari bilan o‘rganish	Kritik fikrlash
Baholash	Pedagogik yechimlarning samaradorligini baholash	Kritikfikrlash, kommunikatsiya
	Yangi metod, loyiha yoki dars modelini ishlab chiqish	Kreativlik, kollaboratsiya

Ushbu integratsiya orqali o‘qituvchi kognitiv rivojlanishning ketma-ket bosqichlaridan o‘tadi.

Bilim → tushunish → qo‘llash → tahlil → baholash → yaratish

jarayoni esa:

kommunikatsiya → hamkorlik → kritik fikrlash → kreativlik

bilan uzviy bog‘lanadi.

5. O‘qituvchilarning yuqori darajadagi fikrlashini rivojlantirish texnologiyalari

Muammoli ta’lim

Muammoli ta’lim o‘qituvchini tayyor javobni qabul qilishdan ko‘ra, muammoni mustaqil o‘rganish va yechim topishga yo‘naltiradi.

Masalan, seminar mashg‘ulotida:

“Nima uchun ayrim o‘quvchilar interfaol metodlardan foydalanilgan darslarda ham faol ishtirok etmaydi?”

degan muammo qo‘yiladi.

O‘qituvchilar:

1. muammoni aniqlaydilar;
2. sabablarni tahlil qiladilar;
3. farazlarni ilgari suradilar;
4. yechim variantlarini ishlab chiqadilar;
5. ularni baholaydilar;
6. eng maqbul yechimni tanlaydilar.

Bu jarayon Bloomning tahlil, baholash va yaratish bosqichlarini hamda 4Kning barcha komponentlarini qamrab oladi.

Case-study

Case-study pedagogik vaziyatlarni real holatlarga yaqin shaklda tahlil qilish imkonini beradi.

Masalan:

“O‘quvchi darsda topshiriqlarni muntazam bajarmaydi va sinfdoshlarining ham faoliyatiga xalaqit beradi.”

O‘qituvchilar quyidagi savollar asosida ishlaydilar:

- Muammoning sababi nimada?
- Qanday pedagogik omillarni hisobga olish kerak?
- Qanday strategiyalarni qo‘llash mumkin?
- Qaysi strategiya samaraliroq?
- Tanlangan yechimni qanday amalga oshirish mumkin?

Bu faoliyat tahlil qilish, baholash va yaratish jarayonlarini faollashtiradi.

Loyiha texnologiyasi

Loyiha texnologiyasi 4K modelining barcha komponentlarini kompleks ravishda rivojlantirish imkonini beradi.

O‘qituvchilarga:

“XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi dars modeli”

